

**SOTSIAL MOBILLIK VA UNING O`ZIGA XOSLIGI****Kamoldinova Mubina Xusniddin qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи sotsiologiya yўnalishi 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11204204>

*Annotatsiya. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishining holati va uning ijtimoiy tabaqalanishi aholining ijtimoiy harakatchanligini to'liq aks ettiradi, bu shaxslarning ijtimoiy mavqeini o'zgartirishning yo'nalishlari va harakat mexanizmlarini tavsiflaydi. Odamlar doimiy harakatda, jamiyat esa rivojlanishda. Jamiyatdagi odamlarning ijtimoiy harakatlarining yig'indisi, ya'ni. ularning holatidagi o'zgarishlar ijtimoiy harakatchanlik ya'ni sotsial mobillik deb ataladi. Bu mavzu insoniyatni uzoq vaqtdan beri qiziqtirib kelgan.*

**Kalit so'zlar:** mobillik, "Qonunlar", "Siyosat", "Davlat", "Ijtimoiy harakatchanlik", ijtimoiy sinf, "oltin me'yor", "optimistik" ijtimoiy lift.

**SOCIAL MOBILITY AND ITS CHARACTERISTICS**

**Abstract.** *The state of the social structure of society and its social stratification fully reflect the social mobility of the population, which describes the directions and mechanisms of movement of individuals' social status. People are in constant motion, and society is developing. The sum of social actions of people in society, i.e. changes in their status are called social mobility. This topic has been of interest to humanity for a long time.*

**Key words:** mobility, "Laws", "Politics", "State", "Social mobility", social class, "gold standard", "optimistic" social elevator.

**СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ И ЕЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ**

**Аннотация.** Состояние социальной структуры общества и его социальная стратификация в полной мере отражают социальную мобильность населения, которая описывает направления и механизмы движения социального статуса личности. Люди находятся в постоянном движении, а общество развивается. Сумма социальных действий людей в обществе, т.е. изменения в их статусе называются социальной мобильностью. Эта тема уже давно интересует человечество.

**Ключевые слова:** мобильность, «Законы», «Политика», «Государство», «Социальная мобильность», социальный класс, «золотой стандарт», «оптимистический» социальный лифт.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy bo‘linishi muammosi ilmiy muammo sifatida qadimgi yunon faylasuflari tomonidan o‘rganilgan. Mulk tahlili Platonning "Qonunlar" va "Davlat", shuningdek, Aristotelning "Siyosat" asarlarida allaqachon mavjud. Aflatun va Aristotelning dalillari tabaqalanish nazariyasining ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qismi sifatida shakllanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatdi. siyosiy falsafa. Ijtimoiy tabaqalanish maktabi doirasida ijtimoiy harakatchanlik nazariyasi tug‘iladi, uning asoschisi Pitirim Sorokindir. Uning ushbu muammoga bag‘ishlangan birinchi yirik asari 1927 yilda nashr etilgan. "Ijtimoiy harakatchanlik" deb nomlangan ushbu asar sotsiologiya klassiklariga tegishli bo‘lib, uning eng muhim qoidalari uzoq vaqtadan beri ijtimoiy fanlar bo'yicha ko'plab darsliklarga kiritilgan. Zamonaviy jamiyatlarda sodir bo‘layotgan ijtimoiy jarayonlar sotsial differensiasiya, iqtisodiy tengsizlik, turli ijtimoiy guruhlar o`rtasida madaniy tafovutlarning chuqurlashishi kabi holatlar kishilarning ijtimoiy qadriyatları tizimiga ta’sir ko`rsatadi va mobilikkä turtkilaydi. Sotsial mobillik (lotincha, “мобилис” –harakatchan) –individ yoki ijtimoiy guruhning jamiyat ijtimoiy tuzilmasida tutgan o`rni, joyini (sinf, ijtimoiy guruhga mansublik va hokazo) o`zgartirishida ijtimoiy harakatchanligini nazarda tutadi. Ushbu hodisa bois kishining jamiyatda tutgan ijtimoiy maqomi o`zgarib boradi. Sotsial mobillik jamiyat taraqqiyoti davomida ijtimoiy o`zgarishlar bilan chambarchas bog`liq kechuvchi jarayon sanaladi. Sotsial transformasiyalar, ularning tabiat qanday bo`lishidan qat’iy nazar sosial mobillik oqimlarining kuchayishiga olib keladi. Agarda jamiyatning iqtisodiy hayotida o`zgarishlar sodir bo`lsa, turmush darajasini tushib ketishiga olib keladi va kishilarning sosial mobillikka nisbatan munosabati salbiy bo`ladi. Aksincha, taraqqiyot sharoitida mobillik insonlar hayotiy imkoniyatlarini kengayishiga olib kelishi ijtimoiy o`zgarishlarning ijobiy dinamikasidan darak beradi.

Sotsial mobillikning klassik nazariyalarini yaratgan olimlardan biri amerikalik Pitirim Sorokin edi. P. Sorokin mobillik tushunchasini keng iste’molga kiritdi va uning tayanch mohiyatini ochib berdi. Uningcha, sorsial mobillik «har qanday individ faoliyati orqali yaratilgan yoki modifikasiyalashgan sotsial ob’ekt (qadriyat)ning bir ijtimoiy pozisiyadan ikkinchisiga o’tishidir». P. Sorokin sosial mobillikda statik va dinamik fazalarni ajratib ko`rsatadi. Sotsial mobillikning statik fazasida tartiblovchilik roli qadriyatlar tizimiga tegishli bo`ladi. Bunda kishining ko’chib yurishi aniq o’rnatilgan ijtimoiy me’yorlar doirasida sodir bo`ladi. Sotsial mobillikning har qanday turida o`lchov mezonlari iqtisodiy, siyosiy, kasbiy-professional pozisiyalar bo`lib, ular kishining mobilligi orqali engib o’tiladi va bir holatdan ikkinchisiga o’tish sodir bo`ladi.

Aynan sosial mobillik bois o`z davrida amerikaliklarning ijtimoiy pillapoyalardan yuqorilab ketish imkoniyati yaqqol kuzatildi. Sorokinning fikriga ko`ra, bu ma`noda ta`lim va tadbirkorlik “sosial elevator” rolini o`taydi. Aynan, ta`lim bois individ bir turmush tarzidan ikkinchisiga o`tadi va bu ma`noda ta`lim insonning jamiyatdagi ijtimoiy maqomini mavjud holatidan pog`onama pog`ona yuqorilab borishga xizmat qiladi. S.Lipset va R. Bendikslar uchun sosial mobillik individning ijtimoiy tizimdagи mavjud pozisiyalararo ko`chib yurish jarayonining yig`indisidir. Mualliflarning yondashuviga muvofiq sanoatlashgan jamiyatlarda ta`lim, iqtisodiy va huquqiy yangilanishlar ijtimoiy makondagi ideal modelni shakllantiradi va unda kishilar yoki “muvaqqiyat qozonadi”, yoki “qoloq”lar safidan joy oladi.

Demakki, jamiyat taraqqiy etib borishi bilan Sorokinda tan olingan ta`lim bilan birlashtirorda iqtisodiy-moliyaviy ko`rsatkichlar kishining social mobilligini yanada jadallashtiradi.

O.Shkaratan sotsial mobillikni ilmiy o`rganish an`anasini “imkoniyatlar tengligi” g`oyasidan kelib chiqib, shartli ravishda amerikacha “optimistik” va europacha “pessimistik” turlarga ajratdi<sup>60</sup>. Evropada “oltin me`yor” klassik model sifatida meritokratik pessimizmni ko`ndalang qo`yadi. Bunga ko`ra, Buyuk Britaniyada boyib ketish uchun “badavlat oilada tug`ilish” lozim.P. Sorokin sotsial mobillik zamirida ta`lim tizimi yotishini ko`rsatib, aynan, ta`lim bois individ bir turmush tarzidan ikkinchisiga o`tishini ta`kidlaydi. Ta`lim insonning jamiyatdagi ijtimoiy maqomini yuqorilab borishga xizmat qiladi.

Sorokinning fikriga ko`ra, bu ma`noda ta`lim sosial lift rolinio`taydi. P.Sorokin o`zining asarida Evropa va amerika jamiyatlaridagi iqtisodiy sohada tarafsiziyalarini o`rganar ekan, bu davrda turli qatlam vakillari orasida boyib borish tendensiyasini qayd etadi. Amerikada boylikning katta miqdorda to`planishi, quyi qatlam vakillari orasida sosial mobillik darajasini oshib borishi bilan sodir bo`ladi. Angliya, Germaniya va Fransiya kabi Evropa davlatlarida sosial mobillikda ko`tarilish kuzatilmasa-da, ammo muqobil stabillik saqlanib kelayotgani ijobjiy baholanadi. P.Sorokin sotsial mobillikni avvalambor “ijtimoiy fakt” sifatida tavsiflagan bo`lsa, uning izdoshlari (S.Lipset, R.Bendiks) tomonidan sotsial mobillik ijtimoiy mo`ljallar bo`yicha harakatlanish sifatida talqinlandi.

Mobillik taraqqiyot g`oyasi bilan uzviy aloqadorlikda o`rganilib, Lipset kishining ta`lim, lavozim, daromad darjasini kabi ijtimoiy maqomning bazaviy ahamiyatli ko`rsatkichlari yig`indisi sifatida tavsifladi. Natijada, sotsial mobillik tushunchasi jamiyat tomonidan o`rnatilgan ijtimoiy mo`ljallarda “qotib qolgan”lik holatini ifodalasa, ikkinchi tomondan o`ta individual xususiyat kasb etuvchi tushunchaga aylandi. Sotsial mobillikning gorizontal va vertikal turlari bo`lib, gorizontal sotsial mobillikda inson bir darajada turgan bir pozisiyadan ikkinchisiga ko`chishi bo`lib, bunda insonning ijtimoiy-professional maqomi o`zgarmaydi. Gorizontal mobillik

indiviudal yoki guruhli tarzda kechishi mumkin. Geografik gorizontal mobililik turi sifatida –migrasiya olinadi. Bunda, kishining bir hududdan ikkinchi hududga ijtimoiy maqomini o'zgartirmasdan ko'chib o'tishi anglanadi. U.Tomas va F.Znaneskiylarning "Polyak dehqoni Evropa va Amerikada" asari mohiyatan migrasiya borasidagi ilk empirik sosiologik ishlardan biri bo`ldi. Ushbu asarda migrasiyajamiyatda sodir bo`layotgan sosial o`zgarishlarning oqibati sifatida o`rganildi. R.Park, E.Berjess va R. Makkenzilarning "Shahar" asarida migrasiya oilalar, individ va sosial institutlarning ijtimoiy makondagi mobilligining indikatori va uni jlonlantiruvchi vosita sifatida namoyon bo`ldi. K.V.Bendukovich megoplislarda mehnat migrasiyasini tartibga solish muammolariga e'tibor qaratgan bo`lsa, M.I.Seredina zamonaviy megapolislarda mehnat migrantlari etnik jamoalarining shakllanishi va ular o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni o`rgandi.

Shuningdek, Yu.F Florinskaya, I.N., Bogdanova I.N., X.R KadirovaGlarning ilmiy izlanishlar yosh avlod vakillari orasida migrasion jarayonlarning jadallahganligini ko`rsatdi. O`zbekiston sotsiolog olimlaridan Sh.Sodiqova, X.Xusanova, E.Zaitovlarning tadqiqotlarida yoshlar orasida intellektual migrasiya xususiyatlariga e'tibor qaratib kelinayotgan bo`lsa, uning ijtimoiy oqibatlari hamda tartiblash muammolari alohida o`rganilgan. Yoshlar orasida migrasion jarayonlar xususiyatlari sosiologik nuqtai nazardan tavsiflandi va yoshlar sosial mobilligi va intellektual salohiyat tushunchalari bilan aloqadorlikda ilmiy talqinlandi.

Ushbu tadqiqotlarda ta'lim, ilm fan sohasida yoshlar migrasion faollik dinamikasini ilg`or tajriba asosida qiyosiy o`rganish asosida migrasiya ko`lamini baholash mezonlari ochib berildi. Xalqaro normalar bo`yicha intellektual migrasiyani tartiblash tizimi samaradorligi yoritildi. Bugungi kunda O`zbekistonda ta'lim migratsiyasi yo`nalishlari va unda yoshlar ulushining anketali so`rov metodi asosida tahlil qilinib, yoshlar orasida intellektual migrasiya ko`lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarblashmoqda.

Bunda:

-yoshlar sotsial mobilligi va intellektual salohiyat tushunchalarini sotsiologik kategoriyalar sifatida mazmun mohiyatini ochib berish;

-xalqaro intellektual va mehnat migrasiyasida o`zaro aloqadorlik tendensiyalarini ilmiy tahlil qilish va yoritib berish;

-ta'lim, ilm fan sohasida yoshlar migrasion faolligi dinamikasini ilg`or tajriba asosida qiyosiy o`rganish;

-O`zbekistonda ta'lim migratsiyasi yo`nalishlari va unda yoshlar ulushining anketali so`rov metodi asosida tahlil qilish;

-yoshlar orasida intellektual migrasiya ko`lamin qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish bo`yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday jamiyatda ijtimoiy zinapoya deb ataladigan narsa borligi hech kimga sir emas. Bu aholining alohida qatlamlari joylashgan ma'lum bir ierarxiyadir. Ba'zi ijtimoiy guruhlar bu zinapoyada yuqoriqoq, ba'zilari esa pastroq. Ba'zi odamlar butun hayoti davomida o'zlarining ijtimoiy qatlamlari chegaralarini tark etmaydilar. Ular zinapoyaning bir zinapoyasida. Boshqalar esa yuqoriga yoki pastga tushishadi biroq, harakat juda sekin amalga oshadi. Har qanday jamiyatda aholining bir qatlamidan ikkinchisiga tez harakatlanishiga imkon beruvchi muayyan shart-sharoitlar mavjud. Ideal holda, bu harakat yuqoriga yo'naltirilgan. Pastroq darajaga keskin harakatlanish holatlari mavjud bo'lsa-da. Bu ijtimoiy yuksalish. Ushbu kontseptsianing ta'rifi Pitirim Sorokin tomonidan berilgan. Bu rus-amerikalik sotsiolog 20-asr boshlarida turli maqomdagagi ijtimoiy guruhlar harakatini tahlil qildi. Shu bilan birga, Sorokin qaysi hollarda bu harakatlar insonning bu hayotda o'sishiga imkon berishini hisoblab chiqdi.

Nazariya juda ishonchli bo'lib chiqdi, chunki u tabiatdan -Rossiya shimolidagi kichik bir qishloqda yashovchi masthunarmandning oilasidan chiqqan shaxs tomonidan yozilgan. Sorokining ta'kidlashicha, inson o'sishi uchun o'z kanalini (lift) izlashi kerak. Bu sizga mavjud holatni tezda o'zgartirish imkonini beradi. Sorokin nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy liftlar har bir kishi uchun butunlay boshqacha bo'lishi mumkin. Aholining harakatchanligi kanallarining turlari o'z ro'yxatiga quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: cherkov, ta'lim (maktab), biznes (mulk).

Zamonaviy dunyoda mobillik kanallariga davlat xizmati, sport, siyosat va san'at qo'shildi. Maqomini o'zgartirmoqchi bo'lgan har bir kishi o'zining ijtimoiy liftini topishi kerak. Bu ko'tarilishning butun mexanizmini ishga tushiradi va harakatni boshlaydi. Albatta, lift o'rniga zinapoyadan foydalanishingiz mumkin. Biroq, bu juda uzoq davom etadi va juda zerikarli jarayonga aylanadi

## REFERENCES

- Хайринисо Тайировна Хусанова АХОЛИНИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯЛАШ-ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА// Academic research in educational sciences. 2022. NoNUU Conference 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/a-oloni-izhtimoiy-imoyalash-inson-kapitalini-rivozhlantirish-omili-sifatida> (дата обращения: 28.02.2023).

2. XусановаХ. Т. Аҳолини ижтимоий ҳимоялашда хорижий тажриба: илғор моделлар ва амалиёт//Журналсоциальныхисследований. –2022. –Т.
3. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni. Lex.uz. O'RQ - 637-son. 23.09.2020 yil
4. <http://www.genderi.org/6-mavzu-sotsiologiyada-sotsial-stratifikatsiya-va-sotsial-mobi.html?page=11>
5. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/1340894/61b1b41f595d1.pdf>
6. [https://library.navoiyuni.uz/files/ijtimoiy\\_tuzilmalar\\_sotsiologiyasi.pdf](https://library.navoiyuni.uz/files/ijtimoiy_tuzilmalar_sotsiologiyasi.pdf)